

## DIDACTIC GAMES IN TEACHING THE SCIENCE OF EDUCATION USAGE METHODOLOGY

**Jurabayeva Latofat Kalmirzayevna**

*Teacher of primary education at school 18, Chinoz district, Tashkent region*

**Abstract:** *The importance of the educational system in educating young students as a well-rounded person by teaching the science of education cannot be compared with anything. Therefore, it is necessary to enrich the material and technical base of the educational system and provide it with modern technologies. The need to educate mature personnel in accordance with the requirements of the times has also changed the status of school education. Therefore, the use of didactic games in lessons in school education has a great role in educating the young generation in a comprehensive manner. The use of didactic games in the teaching of educational science is of great importance in teaching, educating and improving students in the educational process. Therefore, didactic games are very important for elementary students to understand the subject.*

**Key words:** *interactive methods, innovative pedagogical technology, traditional teaching methods, school age, discussion, integrated lesson, didactic game*

Didaktika pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog'idir. Hozirgi davrda didaktika o'qitishning mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarini ilmiy asoslab beruvchi pedagogika sohasi sifatida tushuniladi. Umumiy didaktikadan tashqari xususiy didaktikalar yoki alohida fanlar bo'yicha ta'lim metodikasi deb ataluvchi didaktikalar ham mavjud. Ularning mazmuni ta'limning ma'lum bosqichlarida u yoki bu fanlarni o'rganish va ta'lim berishning nazariy asoslarini belgilaydi. Har bir o'qituvchi didaktika asoslarini puxta bilishi va unga tayangan holda faoliyatini tashkil etishi zarur. Ko'pchilik olimlar ta'lim obyekti deb o'qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlari, metodlari va tamoyillarini ko'rsatadilar. Didaktika ta'limni ijtimoiy tajriba berish vositasi sifatida e'tirof etadi. Ta'lim yordamida o'quvchilarni hayotga tayyorlash amalga oshiriladi. Ta'limiy faoliyatni tashkil etuvchi o'qituvchi-o'quvchi-o'quv material, o'quvchi boshqa o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar yuzaga keladi. Didaktika predmetining mohiyatini ochishga xizmat qiluvchi yana bir qarash ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlit o'rganish zarurligini ilgari suradi.[4.8]

Didaktikaning vazifalari quyidagilardan iborat

- ta'limning jarayonlari va ularni amalga oshirish shartlarini ta'riflash va tushuntirish;
- ta'lim jarayonini yanada mukammal tashkil etish ya'ni ta'lim tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish;
- ta'lim jarayoni uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni aniqlash, omillarini tahlil qilish va ta'riflash.

L.S.Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.[9]

O'yin ijodiylik bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga—"ijod maydoni"ga ega bo'ladi.

O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

sifatida o'yin tuzilmasi quyidagilarni qamrab oladi:

-o'ynash uchun olingan rol

-bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;

-predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash;

-o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;

-o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mazmun) –ijro sohasi.

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish uslubi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq,

nazorat) shaklida tashkil etiladi.[2.5]

O'yinlarni tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

-ta'limiy (didaktik) maqsad;

-tarbiyaviy maqsad;

-faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad;

-ijtimoiy maqsad.

Didaktik o'yin o'quvchilarning ma'naviy axloqiy kamolotida, ularning mukammal inson bo'lib kamol topishida g'oyat katta tarbiyaviy ta'sir qudratiga ega. O'yin timsolida bolalar jamoa bo'lib yashashga, uyushqoqlikka, birgalikda ijod qilishga, hamkorlikda ishlashga va mustaqillikda ishlashga o'rganadilar. Axloqiy sifatleri va tushunchalari ,vazifalari tarkib topadi. O'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga, intizomga o'rganadilar. Ularda do'stlik, inoqlik his tuyg'ulari rivojlanadi. Ularning estetik zavqlari o'sadi, turli kasb hunarlarga bo'lgan qiziqishlari ortadi.,dunyoqarashi shakllanadi.

Didaktik o'yinlar asosan ta'lim jarayonini o'quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarliklariga qarab samarali tashkil qilishga, ularga bilim va ma'lumot berishni yengillashtirishga, ta'limda ko'rgazmalikni ta'minlashga qararilgan[5.7]

O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;

- kommunikativlik (uyushtiruvchilik);

- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;

- davolovchilik;

- tashxis;

- millatlararo muloqot;

- ijtimoiylashuv va hokazo.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi.[3]

O'quvchi hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. O'yin faoliyati orqali o'quvchining o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;  
2. O'yin davomida o'quvchining muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi;

3. O'quvchining o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratadi;

4. Hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarini tarkib topishiga yordam beradi;

5. O'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;

6. O'quvchining ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

7. Insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan qadriyatlar tizimi, ayniqsa ijtimoiy, ma'naviy-madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga e'tibor qaratiladi;

8. O'yin ishtirokchilarida ommaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Shuning uchun didaktik o'yinlar o'quvchilarning mavzuni tushunib

yetishlarida juda ham muhimdir. Biz o'quvchilarga mavzularni ilmiy-nazariy bilimlar orqali tushuntirsak bu o'quvchi uchun og'irlik qilishi yoki o'quvchi buni shunchaki yod olishi, uni nima ekanligini anglab yetmasligi mumkin. Shuning uchun ko'proq o'yinlar orqali amaliy jihatdan o'rgatsak o'quvchi ongiga tez yetib boradi. Ayrim noan'anaviy usullar orqali tashkil etilgan o'yin - dars shakllari:

**-ishchanlik o'yini darsi** –mavzu bo'yicha masalalarni hal qilish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish;

**-rolli oyin darsi** –mavzu bo'yicha masalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash;

**-teatrlashtirilgan dars-** mavzu bilan bog'liq sahna ko'rinishlarini tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish;o'yin darsi- mavzuni sahnalashtirilgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

**-integral(integral)dars** - boshqa darslarga bog'lab tashkil etishga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib, o'quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolligini taminlaylik.[5]

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4467-son Qarori

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4623-son Qarorlari.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi PF 6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'limtarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

5. Sayidaxmedov, N. Texnologik yondashuv ustivorligi. G'G'Ma'rifat, 2003 y, fevral.-B. 3.

6. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T.: Jstiqloq, 2003.

7. H. va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.: Iqtisod moliya 2009, 9-b.

8. Abu Nasr Farobiy. «Fozil odamlar shahri» T. : 2012.

9. P., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. Ўқув қўлланма. – Т., 2013.

Ahmedova, D., & Akramov, A. (2021, July). USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM. In Конференции.

Abarjon o'g'li, A. A., & Barchinoy, M. (2022). YER USTI VA OSTI SUVLARINI IFLOSLANTIRUVCHI ASOSIY MANBALAR. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 216-219.

Abarjon o'g'li, A. A. (2022). SHAHARLASHUV JARAYONINI ATROF-MUHITGA TA'SIRI. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(14), 70-73.

Akramov, A. (2022). USE OF DIDACTIC GAME TECHNOLOGIES IN TEACHING ECOLOGICAL SCIENCE. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 559-562.

Madina, G., & Adakhamjon, A. (2021). Conservation of flora. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(11), 195-198.

Ahmedova, D., & Akramov, A. (2021, July). USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE EDUCATION SYSTEM. In Конференции.

Xalmatova, S., Gaybullayeva, M., & Akramov, A. (2022). O 'SIMLIKLAR OLAMIGA INSON FAOLIYATINING SALBIY TA'SIRI, HAMDA UNI OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 947-953.

Xalmatova, S., & Akramov, A. (2022). KIMYOVIY O 'G 'ITLAR TARKIBIDAGI TURLI MODDALAR ORQALI TUPROQLAR QATLAMINI IFLOSLASHI VA UNING OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI. International scientific journal of Biruni, 1(2), 4-7.

Халматова, Ш., Усманова, Т., & Акрамов, А. (2022). Экологические последствия воздействия человека на растительный и животный мир. theory and analytical aspects of recent research, 1(5), 547-554.

## PHOSPHOGYPSUM IS A HIGHLY EFFECTIVE REMETER SALTED SOILS

**Pardaeva Asalkhon**  
*National Researcher*  
*University of Uzbekistan*

**Annotation:** *The article provides information that the use of phosphogypsum in agriculture can simultaneously solve the following major economic tasks: - reducing the cost of optimizing the mineral nutrition of agricultural plants; – improving the physical and chemical properties of the soil and preventing their depletion of meso- and microelements. Of particular importance is the improvement of the ecological situation in the places of production of phosphate fertilizers and the use of phosphogypsum on saline soils.*

**Key words:** *soil, fertilizer, plant, industrial waste, phosphogypsum, fertility, nutrients, toxic elements, ecology, productivity.*

## FOSFOGIPS SHO‘RLANGAN TUPROQLARNING YUQORI SAMARALI MELIORANTI

**Pardaeva Asalkhon**  
*Milliy tadqiqotchi*  
*O'zbekiston universiteti*

**Аннотация:** *Мақоллада қишлоқ хо'jaligida fosfogipsdan foydalanish bir vaqtning o'zida quyidagi asosiy iqtisodiy vazifalarni hal qilishi mumkinligi haqida ma'lumot berilgan: qishloq xo'jaligi o'simliklarining mineral oziqlanishini optimallashtirish xarajatlarini kamaytirish; tuproqning fizik-kimyoviy xossalarni yaxshilash va ularning mezo- va mikroelementlar kamayishining oldini olish. fosfatli o'g'itlar ishlab chiqarish joylarida ekologik vaziyatni yaxshilash va sho'rlangan tuproqlarda fosfogipsdan foydalanishning ahamiyati.*

**Таянч so'zlar:** *tuproq, o'g'it, o'simlik, sanoat chiqindilari, fosfogips, unumdorlik, ozuqa moddalari, zaharli elementlar, ekologiya, hosilldorlik.*

## ФОСФОГИПС – ВЫСОКО ЭФЕКТИВНЫЙ МЕЛИОРАНТ ЗАСОЛЕННЫХ ПОЧВ

**Пардаева Асалхон**  
*исследователь Национального*  
*университета Узбекистана,*